

O‘ZBEKISTON SSRDA ICHKI ISHLAR ORGANLARINING SHAKLLANISHI VA DASTLABKI FAOLIYATI (1918–1930-YILLAR)

Sobirov Firdavs Anvar o‘g‘li

Annotatsiya: Ushbu tezisda 1918–1930-yillarda O‘zbekiston SSRda ichki ishlar organlarining shakllanishi va dastlabki faoliyati tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot natijalarida ichki ishlar tizimining tashkiliy shakllanishi, huquqiy asoslari, mafkuraviy yo‘nalishi hamda jamiyatdagi roli yoritiladi.

Annotation: This thesis analyzes the formation and early activities of the internal affairs bodies in the Uzbek SSR during 1918–1930 based on historical documents and archives. It highlights the institutional development, legal framework, ideological orientation, and social functions of the internal affairs system.

Аннотация: В тезисе анализируется формирование и начальная деятельность органов внутренних дел Узбекской ССР в 1918–1930 годах на основе архивных источников. Раскрываются организационные, правовые и идеологические аспекты становления системы внутренних дел и её роль в обществе.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston SSR, ichki ishlar, tarix, militsiya, davlat boshqaruvi, huquqni muhofaza qilish.

Keywords: Uzbek SSR, internal affairs, history, militia, state governance, law enforcement.

Ключевые слова: Узбекская ССР, внутренние дела, история, милиция, государственное управление, правопорядок.

O‘zbekiston SSRda ichki ishlar organlarining shakllanishi masalasi nafaqat siyosiy-huquqiy tarixning bir qismi, balki milliy davlat boshqaruv tizimi taraqqiyotini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. Mazkur davr — 1918–1930-yillar — O‘zbekiston hududida davlat boshqaruvi, huquqni muhofaza qilish va xavfsizlik sohasida tub o‘zgarishlar yuz bergan

davr sifatida baholanadi. Tadqiqotchi sifatida shuni ta’kidlash lozimki, bu jarayonni o’rganishda faqat siyosiy yoki mafkuraviy yondashuv yetarli emas. Masalaga institutsional, ijtimoiy va huquqiy nuqtai nazardan kompleks tahliliy yondashuv zarur. Ichki ishlar organlarining shakllanishi jarayonida ular nafaqat Sovet mafkurasining vositachisiga, balki jamiyatda tartib va xavfsizlikni ta’minlovchi institut sifatida shakllanganini tarixiy manbalar asosida ko’rish mumkin.

O’zbekiston SSRda ichki ishlar organlarining shakllanishi 1918–1930-yillarda kechgan murakkab siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar bilan chambarchas bog’liq bo’lgan. Bu davr — inqilobdan so’nggi beqarorlik, fuqarolik urushi, yangi davlat boshqaruvi institutlarini barpo etish jarayoni bilan tavsiflanadi. Shu sababli, ichki ishlar organlarining dastlabki faoliyati ham faqat huquqiy yoki ma’muriy yo’nalishda emas, balki siyosiy va harbiy maqsadlarda shakllangan.

1918-yilda Turkiston Muxtor Sovet Sotsialistik Respublikasi tashkil topishi bilan bir qatorda, Ichki ishlar xalq komissarligi (IIN) ham tuzilgan edi. Ushbu tuzilma dastlab asosan inqilobiy qo’mitalar va harbiy qismlarga tayanar, ularning asosiy vazifasi “kontrinqilobiy harakatlarga qarshi kurashish”, “sovet hokimiyatini mustahkamlash” va “jamoat tartibini saqlash” edi. 1920-yillarning boshlarida ichki ishlar organlari faoliyatida siyosiy nazorat ustunlik qilgan bo’lsa-da, 1922–1926-yillarga kelib bu tizim asta-sekin huquqni muhofaza qilish va fuqarolik xavfsizligi yo’nalishiga o’ta boshlagan.

Shuni ta’kidlash kerakki, ichki ishlar tizimining shakllanishini faqat repressiv mexanizm sifatida baholash biryoqlama yondashuv bo’ladi. Arxiv materiallari va davriy nashrlar tahlili shuni ko’rsatadiki, mazkur organlar jinoyatchilikka qarshi kurashish, iqtisodiy jinoyatlarning oldini olish, pasport tizimini yo’lga qo’yish, hamda transport xavfsizligini ta’minlash kabi amaliy yo’nalishlarda ham faoliyat olib borgan. Bu esa ichki ishlar tizimi o’zining dastlabki shakllanish davridayoq davlat boshqaruvi tizimining muhim bo’g’iniga aylanganini ko’rsatadi¹.

¹ O’RMDA, fond 245, ro’yxat 3, ish 12.

1924–1926-yillar O‘zbekiston SSR tarixida huquqiy tizimning shakllanishi nuqtayi nazaridan ham muhim davr bo‘ldi. Aynan shu yillarda Sovet Ittifoqi tarkibidagi respublikalarda yagona qonunchilik bazasiga asoslangan mahalliy normativ hujjatlar ishlab chiqildi. O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksi (1926-yil) ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy huquqiy doirasini belgilab berdi. Bu kodeks jinoyatni aniqlash, tergov olib borish va jazo choralarini qo‘llash mexanizmlarini aniq tartibga solgan ilk hujjat bo‘ldi.

1926-yilda Toshkentda ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash uchun maxsus qisqa muddatli kurslar tashkil etilgani ham tizimning institutsional rivojlanishida burilish nuqtasini belgiladi². Mazkur o‘quv kurslari nafaqat kasbiy tayyorgarlikni oshirish, balki milliy kadrlarni tarbiyalashga xizmat qilgan. Aynan shu jarayon keyinchalik O‘zbekiston SSRda ichki ishlar tizimining mahalliy, malakali mutaxassislar bazasini yaratishga imkon bergan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 1930-yillarning boshiga kelib Ichki ishlar xalq komissarligi tarkibida ixtisoslashgan bo‘limlar — jinoyat qidiruv, iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurash, transport xavfsizligi va pasport nazorati bo‘limlari faoliyat yurita boshlagan. Bu bo‘limlar o‘sha davr uchun yangilik hisoblanib, zamonaviy ichki ishlar tizimining funksional asosini yaratgan. Shu bilan birga, sovet mafkurasi ichki ishlar organlarining faoliyatiga chuqur ta’sir ko‘rsatgan. Tizim siyosiy nazoratni amalga oshirishda ham ishtirok etgan bo‘lsa-da, bu jarayonni tarixiy sharoitdan ajratgan holda baholab bo‘lmaydi. Chunki o‘sha yillarda davlat xavfsizligi va siyosiy barqarorlikni ta’minlash Sovet boshqaruv modelining ajralmas qismi bo‘lgan. Shu jihatdan olganda, ichki ishlar organlari nafaqat mafkuraviy nazorat vositasi, balki jamiyatdagi tartibni saqlovchi institutsional mexanizm sifatida ham muhim rol o‘ynagan.

1918–1930-yillar O‘zbekiston SSRda ichki ishlar organlarining shakllanishi va rivojlanishida muhim bosqich bo‘ldi. Dastlab siyosiy va harbiy vazifalar bajarilgan bo‘lsa-

² Qizil O‘zbekiston, 1926, №44..

da, keyinchalik tizim huquqiy, ma'muriy va ijtimoiy yo'nalishda faoliyat yurita boshladi. Ichki ishlar organlari Sovet mafkurasi ta'sirida bo'lgan, biroq ular jamiyat barqarorligi va xavfsizligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynagan. Tarixiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ichki ishlar tizimi davlat boshqaruvi va huquqiy tizim evolyutsiyasida poydevor yaratgan. Bu jarayon milliy kadrlar tayyorlash, jinoyatchilikka qarshi kurash va jamoat tartibini ta'minlashda tarixiy ahamiyat kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi (O'RMDA), fond 837, ro'yxat 1, ish 23.
2. Turkestanskaya pravda, 1918-yil, №12.
3. Qizil O'zbekiston gazetasi, 1926-yil, №44.
4. O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksi. Toshkent, 1926.
5. Raxmonov Sh. O'zbekiston huquqni muhofaza qilish tizimining shakllanishi. Toshkent, 2019.